

TALABA QIZLARNI IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Saidova Ziyoda Nishon qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti psixologiya fakulteti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi oshirish va intelektual salohiyatini oshirishda ta'lism texnologiyalarning ahamiyati va samaradorligi, ulardan foydalanishning innovatsion omillari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yangi taraqqiyot, jamiyat, ijtimoiy-siyosiy faollik, ta'lism texnologiyalari, samaradorlik, amaliyot, nazariya, texnologik jarayon.

Abstract: In this article, the importance and efficiency of educational technologies and the innovative factors of their use in improving the social protection and intellectual potential of female students in ensuring the development of society today are highlighted.

Key words: New development, society, socio-political activity, educational technologies, efficiency, practice, theory, tech-nological process.

Аннотация: В данной статье описывается значение и эффективность образовательных технологий, инновационные факторы их использования в социальной защите и повышении интеллектуального потенциала студенток в обеспечении развития общества сегодня.

Ключевые слова: Новое развитие, общество, общественно-политическая деятельность, образовательные тех-нологии, эффективность, практика, теория, технологический процесс.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida talaba qizlarni ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar jarayoniga jalb etish, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiyalashni keng ko'lamda amalga oshirish obyektiv zaruriyatga aylandi. Bugun jamiyatning deyarli hech bir muammosini, hatto kelajagi buyuk davlat qurish vazifasini ham ayollar ishtirokisiz hal qilish mushkul. Kelajagi buyuk davlat qurish borasida biz, eng avvalo, yosh avlodga tayanamiz. Farzandni kamolga yetkazish oilaviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishdan boshlanadi. Oiladagi farzandlarimizni qanday insonlar bo'lib yetishishi hammadan oldin ayollarimizga bog'liq. Respublikamiz BMTning "Xotin qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini yo'q qilish haqida"gi konvensiyasiga, Xalqaro mehnat tashkilotining "Onalikni muhofaza qilish to'g'risida"gi "Mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi kamsitishlar to'g'risida"gi konvensiyalariga MDH davlatlari ichidan birinchilar qatorida qo'shildi. Bu hujjatlar xotin-qizlar manfatlarini muhofaza qilish va ularning oiladagi va umuman jamiyatdagи mavqeini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar kompleksining tarkibiy qismidir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahnamologida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Talaba qizlar ta'lism olayotgan vaqtlarida yangi oilaga qadam qo'yishlari ya'ni oila atalmish qo'rg'onning asosini tashkil qilishlari ;yangi oiladagi muhit ham talaba qizlarning bilim olishlariga qulay sharoit yaratishlari lozim .

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldag'i "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmonining qabul qilinganligi buning yorqin ifodasidir. Mazkur Farmon bilan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tar-moqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy man-faatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, ularni jamiyatimizning teng huquqli bунyodkoriga aylantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda tabassumning o'rnii muhim ahamiyatga ega. Tabassum va kulgi inson ruhiyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatib, nafaqat stressni yengillatadi, balki munosabatlarda ishonch va samimiylikni kuchaytiradi. Bu holat oilaviy hayotda muhabbat va o'zaro hurmatni mustahkamlashga yordam beradi. Kulganda inson miyasi endorfinlar (baxt gormonlari) ishlab chiqaradi. Bu gormonlar stress va tushkunlik holatini yengillashtiradi. Shuningdek, kulgi kortizol (stress gormoni) miqdorini pasaytiradi. Kulgi insonga ijobjiy kayfiyat bag'ishlab, ruhiy holatni yaxshilaydi. U asab tizimini tinchlantiradi va kundalik hayotdagi muammolarga yengilroq yondashishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 19 sentyabrdagi 72-sessiyasida so'zlagan nutqida: «...Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashuv va axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning YOshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o'z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo'nalişlaridan biri darajasiga ko'tarish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak» – degan fikrlari dunyo hamjamiyati tomonidan ham keng e'tirof etilmoqda.

Hozirgi jamiyatda talaba-qizlar ijtimoiy-pedagogik nuqtayi nazardan o'zini oqlaydi. Keng dunyoqarashga ega bo'lgan talaba qizlarni mutaxassislik asosida tayyorlash va ular yordamida mamlakatimiz xotin-qizlari salohiyatidan jamiyatimiz ma'naviyati va moddiy farovonligi yanada oshirishning falsafiy-ijtimoiy xususiyatlari hamda pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari mavjud. Xususan, bugungi kunda jamiyatimizda talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, talaba qizlarni yangi oilaga moslashuvi va unga bo'lgan e'tibor, ularni jamiyatimizning teng huquqli bунyodkoriga aylantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Buning yechimi sifatida bugungi kunda ayollar jamiyatimizning eng e'zozga sazovor, hurmat-izzat, g'amxo'rlik va e'tiborga loyiq ijtimoiy toifasiga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotlar asosida oliy ta'lim tizimida talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning ilmiy asoslari va texnologiyasini ishlab chiqish va oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida ta'lim texnologiyalarining ahamiyati hamda samarasini ta'minlash modelini yaratish zarurdir. Talaba-yoshlар ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, jumladan talaba-yoshlarni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, talaba-qizlarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish; Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Bu borada ularning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish asosiy masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-sonli Farmoni

2.Tursunova Dilnavoz To’lqin qizi“Oriental Renaissance:Innovative ,educational,natural and social sciences”,2023

3. Шайхова Х., Назаров К. Умуминсоний қадриятлар ва маънавий камолот. –

Тошкент: Ўзбекистон, 1992;

4. Шайхова Х., Тиллаева Г. Соғлом турмуш тарзи ва ёшлар камолоти. –

Тошкент: Фалсафа ва хуқуқ инст. нашр., 2008;

5. Шайхова Х. Ўзбек аёли – одоб тимсоли. –Тошкент: Ўзбекистон, 2007;

6. Шайхова Х. Баркамол авлод – ахлоқий- қадриятлар қуршовида. –Тошкент:

Фалсафа ва хуқуқ инст. нашр., 2010.

7. Шайхова Х. Маънавият – камолот кўзгуси. –Тошкент: Г.Гулом номидаги

нашириёт-матбаа ижодий уйи, 2009. –Б.88.